

KO'MAKCHILAR (sof va vazifadosh, ma'no turlar)

| <u>Matn</u>  | <u>Sof va<br/>vazifadosh</u> | <u>Ma'no turlari</u> | <u>Birikib<br/>keladigan<br/>kelishiklar</u> | <u>Kelishiklar<br/>bilan<br/>ma'nodoshlik</u> |
|--|------------------------------|----------------------|--|---|
| <b>1.</b> <i>Ish bilan ovora bo'lib, kunning o'tganini ham bilmay qolasan kishi.</i>   |                              |                      |  |   |
| <b>2.</b> <i>Qish qo'ynidan baxt singari yoz uchib kelur.</i>  |                              |                      |  |   |
| <b>3.</b> <i>Bu kitob qo'liga tushgandan keyin bosh ko'tarmay mutolaaga tushdi.</i>  |                              |                      |  |   |
| <b>4.</b> <i>Siz bilan hamsuhbat bo'lmasdan avval boshqacha xayolda edim.</i>  |                              |                      |  |   |
| <b>5.</b> <i>Mirzo Ulug'bek kechalari shu yerda o'tirib, mutolaa qilishni suyar, suyukli jadvali ustida ham shu yerda ishlar edi.</i>                              |                              |                      |  |   |
| <b>6.</b> <i>Oradan ancha vaqt o'tgandan keyin Shiroq o'tovdan chiqdi.</i>   |                              |                      |  |   |
| <b>7.</b> <i>O'rтancha botir ikkinchi kechadagi voqeani aytib, nishona uchun tasmani o'rтaga tashladi.</i>   |                              |                      |  |   |
| <b>8.</b> <i>Usmon Nosir ham mashhur siymolar kabi juda yoshligidan ko'p ijobiy xislatlarga ega bo'lgan edi.</i>   |                              |                      |  |   |
| <b>9.</b> <i>Unihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o'ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlari bilan ajralib turardi.</i> |                              |                      |  |   |
| <b>10.</b> <i>Usmon Nosir o'z ustida ko'p ishlardi.</i>  |                              |                      |  |   |
| <b>11.</b> <i>Usmon she'rlarida jimjimadorlik ko'rinas, fikr-tuyg'u sodda til orgali harorat bilan bayon qilinar edi.</i>  |                              |                      |  |   |
| <b>12.</b> <i>Asarni o'qishga kirishishingiz bilan ko'z o'ngingizda rangin manzaralar paydo bo'ladi.</i>   |                              |                      |  |   |
| <b>13.</b> <i>Qulog'ingiz ostida ajib ohanglar jaranglay boshlaysidi.</i>  |                              |                      |  |   |

|  |  |  |  |  |
|--|--|--|--|--|
| <b>14.</b> Yo'lchida Gulnor haqida ikki og'iz so'z eshitish orzusi kuchli edi.   |  |  |  |  |
| <b>15.</b> A'zamjon qilmishi uchun undan uzr so'radi.  |  |  |  |  |
| <b>16.</b> Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la Bezamoq chog'idir umr daftarin.   |  |  |  |  |
| <b>17.</b> Juda soz! Albatta, kiyib birini, safarga do'stlar-la men ham chiqaman.  |  |  |  |  |
| <b>18.</b> Temur tig'i yetmagan joyni qalam bilan oldi Alisher.  |  |  |  |  |
| <b>19.</b> Yuksak qoyalardan shiddat bilan qo'zg'algan burgut suruvdag'i qo'zichoqni ildi-yu ketdi.  |  |  |  |  |
| <b>20.</b> Qog'oz oq bo'lgani uchun unga So'z bitadilar.   |  |  |  |  |
| <b>21.</b> Uni bir joyga o'tqizib, kuydirilgan namat bilan qonni to'xtatdilar.   |  |  |  |  |
| <b>22.</b> Yuz bergen tabiiy ofat tufayli uyimizning hamma yog'i buzilib-yorilib ketib, yashash uchun mutlaqo yaroqsiz holga kelib qolgandi. |  |  |  |  |
| <b>23.</b> Kimki tong ila tursa, Mushkul ishlari bitgay.   |  |  |  |  |
| <b>24.</b> Shundan beri inson tinmayin Shu yer uzra ter to'kar hamon. Yerni go'zal qilgani sayin Go'zal bo'lar o'zi ham inson.               |  |  |  |  |
| <b>25.</b> Barchasidan qovun soz, Paykal uzra dumalar.   |  |  |  |  |
| <b>26.</b> Halollik buyuklik sari dastlabki qadamgina bo'lib qolmay, buyuklikning ayni o'zidir.  |  |  |  |  |
| <b>27.</b> Qalam-la men to'qiymen qo'shiq, U – insonga, elga xizmatim.   |  |  |  |  |
| <b>28.</b> Abdulla Oripovga adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun 1989-yili «O'zbekiston xalq shoiri» unvoni berildi.                         |  |  |  |  |
| <b>29.</b> Bu to'g'rida maktab direktori, o'qituvchilar  |  |  |  |  |

|  |  |  |  |  |
|--|--|--|--|--|
| gapirsa, o'zimga olmas edim.   |  |  |  |  |
| <b>30.</b> Saida bu haqda bundan ortiq gapirishni lozim ko'rmadi.  |  |  |  |  |
| <b>31.</b> U hamma qishloq bolalari kabi yoshlikdan mehnatga kirishgan bo'lsada, ammo o'yinga ham vaqt topar edi     |  |  |  |  |
| <b>32.</b> Gap futbol o'yini ustida ketardi.   |  |  |  |  |
| <b>33.</b> Qoziq ustida qor turmas.  |  |  |  |  |
| <b>34.</b> Markaziy xirurgiya klinikasining bosh shifokori Mirsidiq Jalilov bir haftadan beri Namanganda dam olardi. |  |  |  |  |
| <b>35.</b> Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilar ishi emas.  |  |  |  |  |
| <b>36.</b> Insonning fe'l-atvoriga qarab unga baho berishadi.  |  |  |  |  |
| <b>37.</b> To'ydan keyin nog'ora chalmoq – nodonlar ishi.  |  |  |  |  |
| <b>38.</b> Bitmas-tuganmas bilimning tagida mashaqqatli mehnat yotadi.   |  |  |  |  |
| <b>39.</b> Donolar oldida doim eshitguvchi bo'l.   |  |  |  |  |
| <b>40.</b> To'g'ri so'z o'z egasini najot sari yetaklaydi.   |  |  |  |  |
| <b>41.</b> Ba'zilar ovqatlanish uchun yashaydilar. Men esa yashash uchun ovqatlanaman.                               |  |  |  |  |
| <b>42.</b> Pokiza kishi hamisha shodlik ustida, gunohkor esa g'am va qayg'u ostida bo'ladi.                          |  |  |  |  |
| <b>43.</b> Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!                                |  |  |  |  |

### KO'MAKCHILARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

- Atash ma'nosini tamoman yo'qotgan va faqat o'zi birikkan so'zni boshqa so'zga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiladigan ko'makchilar sof ko'makchilar sanaladi. *Bilan, sari, sayin, uchun, kabi, qadar, singari, uzra, tufayli, haqida kabi* ko'makchilar shular jumlasidan.

**2.** Sof ko'makchilar urg'u olmaydi. Urg'u ko'makchi bilan birga kelgan mustaqil so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Shuning uchun ko'makchi ohang tomonidan o'zidan oldingi so'z bilan bir butunlikni tashkil qiladi, lekin yozuvda ko'makchi doimo ajratib yoziladi.

**3.** Ba'zan bilan, uchun ko'makchilar badiiy uslubda **-la, ila, birla, -chun** shaklida qo'llanadi. **-la, -chun** chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

**4. Vazifadosh ko'makchilar:**

a) ost, yon, ust, old, orqa, ro'para, qosh - ot so'z turkumidan;

b) oldin, avval, keyin, so'ng, tomon - ravish so'z turkumidan;

c) bo'ylab, qarab, ko'ra, deya, deb, atab - fe'l so'z turkumidan hosil bo'lgan.

**5.** Bunday so'zlar ko'makchi vazifasida kelganda, **o'z ma'nosini yo'qotadi**, shuning uchun ma'lum so'roqqa javob bo'lmaydi. O'zi qo'shilgan so'z bilan birgalikda bitta so'roqqa javob bo'ladi.

**6.** Ko'makchilar yetakchi so'zga bog'lanib, unga turli qo'shimcha ma'nolar yuklaydi.

a) Jumladan, sababli, tufayli sabab ma'nosini, uchun - **sabab va maqsad** ma'nosini;

b) tomon, qarab, sari, bo'ylab - **yo'nalish ma'nosini**;

c) haqida, to'g'risida ko'makchilar - fikr mavzu ma'nosini;

d) kabi, singari ko'makchilar - **o'xshatish, qiyoslash** ma'nosini;

e) qadar ko'makchisi - **chevara ma'nosini** ifodalaydi.

**7.** Bilan, kabi, singari, uchun, sari, sayin, bo'ylab kabi ko'makchilar, asosan, **bosh kelishik** shaklidagi ismlarga qo'shiladi.

**8.** Ko'ra, qaramay, yarasha, asosan, doir, muvofiq kabi ko'makchilar **jo'nalish kelishigi** shaklidagi ismlarga qo'shiladi.

**9.** Tomon ko'makchisi **bosh va jo'nalish kelishigi** shaklidagi ismlarga qo'shiladi.

**10.** Keyin, bo'lak, boshqa, o'zga, tashqari, buyon, oldin, boshlab, avval kabi ko'makchilar **chiqish kelishigi** shaklidagi ismlarga qo'shiladi.

**11.** Old, ost, ust singari vazifadosh ko'makchilar **qaratqich kelishigi shaklidagi** ismlarga qo'shiladi. Bunday hollarda ba'zan kelishik qo'shimchasi qo'llanmasligi ham mumkin.

### BOG'LOVCHILAR ( teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar)

| Matn   | sof va vazifadosh | Bog'langan qo'shma gap (biriktiruv, zidlov, ayiruv, inkor) | Ergashgan qo'shma gap (shart, sabab, aniqlov) | So'z yoki gaplarni bog'lagan |
|--|-------------------|--|---|------------------------------|
| 1. Yupanch topdingmi dunyoga kelib, Ustoz yo shogirddan, yoki tengdoshdan. |                   |  |   |                              |

|  |  |  |  |  |
|--|--|--|--|--|
| <b>2.</b> <i>Nozimaxon goh mashinkasini, goh tikuv mashinasini yurgizib allamahalgacha ishlab o’tiribdi.</i>   |  |  |  |  |
| <b>3.</b> <i>Men ham eshitgan va ko’rganimni aytaman-da, jo’ra.</i>  |  |  |  |  |
| <b>4.</b> <i>Ilm ahlining g‘animlari bo’lmish mustabid shohlar kelib ketaverar, ammo bu maskan, bu zahmatkash xalq <b>abadul-abad</b> hayotdir.</i>                          |  |  |  |  |
| <b>5.</b> <i>Men gulni yaxshi ko’raman, chunki u ruhimni ko’taradi.</i>  |  |  |  |  |
| <b>6.</b> <i>U seskanib tushdi, chunki chol ro’parasiga kelib qolgan edi.</i>  |  |  |  |  |
| <b>7.</b> <i>Ba’zan uloqni to’dadan olib chiquvchi ham ko’rinib qoladi, biroq uning ketidan uloqchilar chug’urchuqday yopirilishib, o’n-o’n besh qadamda tutib oladilar.</i> |  |  |  |  |
| <b>8.</b> <i>Nega kerak gapning «nega, nega»si, Yo shoir, yo marhum buning egasi.</i>  |  |  |  |  |
| <b>9.</b> <i>Ularda dard va iztirob ne qilar, Ular faqat kishnab yurgan yilqilar.</i>  |  |  |  |  |
| <b>10.</b> <i>Yo’qolgan moddiy boylikning o’rnini to’ldirish mumkin, lekin ma’naviy boylikdan judo bo’lish – fojia.</i>  |  |  |  |  |
| <b>11.</b> <i>Bu qizcha shu topda undan jon so’rasa, balki, ayamasdi.</i>  |  |  |  |  |
| <b>12.</b> <i>U rostini gapirib bergani uchun onasi urishmadni, balki yolg’on gapirish odobli</i>  |  |  |  |  |

|  |  |  |  |  |
|--|--|--|--|--|
| <i>bolaning ishi<br/>emasligini aytdi.</i>   |  |  |  |  |
| <b>13.</b> <i>Uning esiga na sevgi, na istirohat keldi.</i>  |  |  |  |  |
| <b>14.</b> <i>Biz o’sha o‘yinlarda faqat jismonan emas, balki ma’naviy jihatdan ham chiniqar ekanmiz.</i>  |  |  |  |  |
| <b>15.</b> <i>Kozimbek bilan Manzuraxon perronda kezishar edi.</i>   |  |  |  |  |
| <b>16.</b> <i>Nega endi natijaga baho berishadi-yu, sababini tekshirib ko‘rishmaydi?</i>   |  |  |  |  |
| <b>17.</b> <i>Quyuq saksovulzor duch kelishi bilan kiyikcha o‘zini shu panohgohga urdi-yu, arang jon saqlab qoldi.</i>                                   |  |  |  |  |
| <b>18.</b> <i>Oy goh eshik tirqishlaridan mo‘ralar, goh bulutlar orasida g‘oyib bo‘ldi.</i>  |  |  |  |  |
| <b>19.</b> <i>Ilmning foydasi shu qadar ko‘pki, ta’riflagan bilan ado qilish mumkin emas.</i>  |  |  |  |  |
| <b>20.</b> <i>Goh u birdaniga o‘yga tolib yuragimga g‘ulg‘ula solar, goh xomush tortib qolganimni ko‘rib kular edi.</i>                                  |  |  |  |  |
| <b>21.</b> <i>Usmonali militsiyaga dam telefon qilar, dam o‘zi borib kelar, yana kechasi bilan telefon oldida o‘tirib chigardi.</i>                      |  |  |  |  |
| <b>22.</b> <i>U turmushidan, o‘tgan umridan rozi, lekin ana shu roziligini tushuntirib berolmas edi.</i>   |  |  |  |  |
| <b>23.</b> <i>Qurvonbibi bir ko‘cha eshigiga, bir yonboshdagи daraxtlar orasidan ko‘tarilib kelayotgan quyoshga, bir o‘choq boshidagi qiziga qaradi.</i> |  |  |  |  |

|  |  |  |  |  |
|--|--|--|--|--|
| <b>24.</b> <i>Yosh Farhodning fikri quyosh kabi yorug', lekin ko'nglidagi ravshanlik undan ham ortiq.</i>  |  |  |  |  |
| <b>25.</b> <i>Har mushkulga bardosh berar, Chidar mening tosh boshim, Ammo sokin, tinch yashashga Sira yo'qdir bardoshim.</i>                                  |  |  |  |  |
| <b>26.</b> <i>Mamlakatimizda bayramlar ko'p, lekin Navro'zning tarovati, shukuh o'zgacha.</i>  |  |  |  |  |
| <b>27.</b> <i>Yo'qchilik g'ayratli, ishchan odamning eshididan mo'ralaydi-yu, ichkariga kira olmaydi.</i>  |  |  |  |  |
| <b>28.</b> <i>Dunyoda kasblar ko'p, biroq odamiylik kasbi hammasidan ulug'dir.</i>   |  |  |  |  |
| <b>29.</b> <i>Vaqt tig'iz-ku, lekin ancha turgim bor.</i>  |  |  |  |  |
| <b>30.</b> <i>Na qo'shiq, na kulgi, na churq etgan ovoz eshitiladi.</i>  |  |  |  |  |
| <b>31.</b> <i>Na kampirning, na Qoratoyning yupatishlari kor qildi.</i>  |  |  |  |  |
| <b>32.</b> <i>Na eshikni, na derazalarni ochib bo'lardi.</i>   |  |  |  |  |
| <b>33.</b> <i>Ko'ngil, sen munchalar nega Kishanlar birla do'stlashding? Na faryoding, na doding bor, Nechun sen muncha sustlashding?</i>                      |  |  |  |  |
| <b>34.</b> <i>Badantarbiya bilan mashg'ul bo'lmay qo'ygan kishi tez-tez kasalga chalinadi, chunki harakatsizlik natijasida kishining a'zolari zaiflashadi.</i> |  |  |  |  |
| <b>35.</b> <i>Vatanimiz poytaxtida, ya'ni</i>  |  |  |  |  |

|  |  |  |  |  |
|--|--|--|--|--|
| <i>Toshkentda diqqatga sazovor joylar ko'p</i>   |  |  |  |  |
| <b>36.</b> <i>Qo'rroq do'st dushmanidan xavflidir, chunki dushmanidan ehtiyyot bo'lasan, ammo do'stga ishonasan.</i>   |  |  |  |  |
| <b>37.</b> <i>Hamon shamol o'kirar, osmonning goh u, goh bu burchida chaqmoq yaraqlab, yong'oq shoxlari shubhali g'iyqillar, ammo endi bular uni qo'rgitolmas edi.</i> |  |  |  |  |
| <b>38.</b> <i>Uilonni aldagani uchun, ya'ni unga dunyodagi eng tansiq taom insonniki emas, qurbaqaning go'shti ekanini aytgani uchun ta'qibga uchragan emish.</i>      |  |  |  |  |
| <b>39.</b> <i>Bu holda mazkur so'zlar adabiy ilmlarni, ya'ni til va adabiyot bilan bog'liq ilmlarni anglatadi.</i>   |  |  |  |  |
| <b>40.</b> <i>O'sha davrlarda adabiyot tarixi darsi xronologik va tematik xarakterga ega emas edi, ya'ni adabiyot tarixi dars sifatida o'tilmasdi.</i>                 |  |  |  |  |
| <b>41.</b> <i>Til o'z vazifasini bajarmasa, qo'l ishga tushadi, ya'ni insoniy munosabat o'rmini hayvoniy xatti-harakat oladi.</i>                                      |  |  |  |  |
| <b>42.</b> <i>Agar havoda chang va tutun bo'lmasa edi, odam ming yil yashagan bo'lardi.</i>  |  |  |  |  |
| <b>43.</b> <i>Agar yo'ldan ozib, bir xato qilsam, Kibr paydo qilsam, topilur davo.</i>   |  |  |  |  |

**YUKLAMA**

| <i>Matn</i>  | <i>So‘z va qo‘s himcha yuklama</i> | <i>Qo‘shib yoki chiziqcha (defis) bilan yoziladigan yuklamalar</i> | <i>Ma’no tutrlari</i> | <i>Sof va vazifadosh</i> |
|--|------------------------------------|--|-----------------------|--------------------------|
| <b>1.</b> <i>Namiqqan shuvoqlar oldin tutab yaxshi yonmasa ham, keyinroq chars-churs uchqun sochdi-da, axiyri gurullab ketdi.</i>                                    |                                    |  |                       |                          |
| <b>2.</b> <i>Biladilar-da bu kishi. Yovlar bilan olishgan-a!</i>   |                                    |  |                       |                          |
| <b>3.</b> <i>Mana endi daradan chiqar-chiqmas, uning isitmasi ko‘tarilib, ko‘z oldini g‘alati tuman qoplab oldi-yu, hamma narsa tushday tuyula boshladi.</i>         |                                    |  |                       |                          |
| <b>4.</b> <i>Men-ku yolg‘iz edim, Na otam, Na onam, na oilam bor.</i>  |                                    |  |                       |                          |
| <b>5.</b> <i>Charchadim. Nahotki, siz ham meni o‘ylamasangiz.</i>  |                                    |  |                       |                          |
| <b>6.</b> <i>Ayt-chi, go‘zal Sanobar, Qayer sening makoning?</i>   |                                    |  |                       |                          |
| <b>7.</b> <i>Faqat ojiz qalamim manim, O‘zbekiston – Vatanim manim.</i>  |                                    |  |                       |                          |
| <b>8.</b> <i>Ona zaminda o‘sadigan mevali, manzarali dov-daraxtlar, o‘simliklar hayot uchun, inson salomatligi uchun naqadar zarur. Ularning shifobaxshligi-chi?</i> |                                    |  |                       |                          |
| <b>9.</b> <i>Qarshiligi ko‘rinib turibdi-ku! Bu qarshilik emasmi?</i>  |                                    |  |                       |                          |
| <b>10.</b> <i>Nahotki, sezmasangiz? Axir, bir oydirki, yurakbag‘rim yonadi.</i>  |                                    |  |                       |                          |

|   |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|
| <b>11.</b> <i>Nosir oxun eski bo‘lsa-da, ozoda libosda edi.</i>   |  |  |  |  |
| <b>12.</b> <i>Birrov kirdi-da, chiqib ketdi.</i>  |  |  |  |  |
| <b>13.</b> <i>Na qo‘sishq, na kulgi, na churq etgan ovoz eshitilmadi.</i>   |  |  |  |  |
| <b>14.</b> <i>Jarang bersin gulyor tag‘in, Childirma-yu chiltor tag‘in.</i>   |  |  |  |  |
| <b>15.</b> <i>Men bor-ku! – deb qichqirdi Akbarali kulib.</i>   |  |  |  |  |
| <b>16.</b> <i>Bola-chaqa omon ekanmi? (Asqad Muxtor) 3. Nega yo‘q bo‘larkan? Muattar Zokirovna-chi? Lobarxon-chi?</i>   |  |  |  |  |
| <b>17.</b> <i>Ba’zan ko‘cha-ko‘yda ham bir narsalarni topib oladi-ya. – Bekor yurmay deydi-da!</i>  |  |  |  |  |
| <b>18.</b> <i>Xatini ham ololdingizmi? – dedi va sabrsizlanib Sodiqning og‘ziga tikildi.</i>  |  |  |  |  |
| <b>19.</b> <i>Toki odamlar meni ko‘rmasin, faqat mehnatimni ko‘rishsin.</i>   |  |  |  |  |
| <b>20.</b> <i>Mehmon esa «buning o‘zi nima-yu, muomalasi nima bo‘lardi» degan ma’noda kulib qo‘ydi, xolos.</i>  |  |  |  |  |
| <b>21.</b> <i>Xotin, bu gaplar kitobdagina bor, xolos, hayot boshqa.</i>  |  |  |  |  |
| <b>22.</b> <i>U chaqqon harakat qilarkan, a’zoyi badani terlab ketgan, faqat buni o‘zi payqamas, hatto bir so‘zni takrorlardi: «Menga desa, otib yubormaydimi?»</i> |  |  |  |  |
| <b>23.</b> <i>«Haqiqatni, faqat haqiqatni</i>   |  |  |  |  |

|   |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|
| <i>aytaman» deb ont iching!</i>   |  |  |  |  |
| <b>24.</b> <i>Ulardan faqat birga oldirilgan suratgina yodgor qoladi, xolos.</i>  |  |  |  |  |
| <b>25.</b> <i>Keksa donishmandning soch-soqoligina emas, qosh-kipriklari, egnidagi chakmoni – hammasi qorday oppoq edi.</i>                         |  |  |  |  |
| <b>26.</b> <i>Suvchilarning yuzin silab o't, Faqat yaxshi tilak tilab o't.</i>  |  |  |  |  |
| <b>27.</b> <i>Mol o'tlaydigan, bolalar chillak o'ynaydigan yer-da!</i>  |  |  |  |  |
| <b>28.</b> – Ikkinchiga o't, hisobni bilmaysan. – <i>U pakana kishiga qaradi: Shunday qilsin-a?</i>   |  |  |  |  |
| <b>29.</b> <i>Nahot, axir, so'nggi dam ham Farzandingni o'ylasang.</i>  |  |  |  |  |
| <b>30.</b> <i>Ajralishar, ular, hattoki, Ismlarin so'rashmaslar ham.</i>  |  |  |  |  |
| <b>31.</b> <i>To'g'ri-da, u tengi bolalar papka ko'tarib maktabga borishadi, uni esa «kichkina» deb xafa qilishadi.</i>                             |  |  |  |  |
| <b>32.</b> <i>Xullas, hammasi ko'ngildagidek borayotgan edi-yu, to'satdan ikkovlari ham shaharga, o'z uylariga qaytish fikriga tushib qolishdi.</i> |  |  |  |  |
| <b>33.</b> <i>U shunday ehtiyyotkorlik bilan emakladiki, hatto qamishlar ham shitirlamadi.</i>  |  |  |  |  |
| <b>34.</b> <i>U so'zlar, tirilib kelarlar go'yo Birga qonli jangga kirgan o'rtoqlar.</i>  |  |  |  |  |

|  |  |  |  |  |
|--|--|--|--|--|
| <i>35. Tog‘laring<br/>tegrangda go‘yo<br/>Bo‘g‘ma ajdar bo‘ldi-<br/>yu, Ikki daryo – ikki<br/>chashming, Chashmi<br/>giryon, o‘zbegim.</i> |  |  |  |  |
| <i>36. Dardga darmon<br/>bo‘ladigan ham shu<br/>so‘z, turmushga og‘u<br/>soladigan ham xuddi<br/>shu so‘z.</i>                             |  |  |  |  |
| <i>37. Hatto, zeb-<br/>ziynatni yulqib<br/>ziyoda, Haykal ham<br/>qo‘yingiz bamisli<br/>xayol.</i>   |  |  |  |  |
| <i>38. Otasining shu<br/>gaplari hozir<br/>Humoyunga xuddi<br/>o‘z dilidan<br/>eshitilayotganday<br/>bo‘ldi.</i>                           |  |  |  |  |
| <i>39. Qo‘y-qo‘zilar<br/>ma‘rashib, Go‘yo<br/>tomchi talashib,<br/>Chopishar qir<br/>chetidan.</i>   |  |  |  |  |
| <i>40. Nuqtaday bir<br/>qush uchar, Go‘yoki<br/>behush uchar.</i>  |  |  |  |  |
| <i>41. Chaqnasa ham<br/>xuddi yulduz, O‘zi<br/>juda epsiz qo‘ng‘iz.</i>  |  |  |  |  |
| <i>41. «O‘lsa o‘lgandir,<br/>bunga nima janjal!»<br/>– deb qo‘ydi tag‘in<br/>birov.</i>  |  |  |  |  |
| <i>42. Yurmasman<br/>hech behishtni izlab,<br/>Topolmasam,<br/>chekmasman alam.</i>  |  |  |  |  |
| <i>43. Hayratga<br/>tushmasman bu<br/>holdan sira, Dunyo,<br/>bu – quvg‘indi<br/>ohuday yelar.</i>   |  |  |  |  |
| <i>44. To‘rt mucham<br/>sog‘, do‘sralrim bor<br/>havas qilgulik,<br/>Nolimayman na<br/>kelajak, na<br/>o‘tmishimdan.</i>                   |  |  |  |  |
| <i>45. Aytinq‘chi, mard<br/>odam aslo o‘lurmi?</i>   |  |  |  |  |

|   |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|
| <i>Nomi qolar yurt<br/>go'shig'iда.</i> |  |  |  |  |
|---|--|--|--|--|

*GAP BO'LAKLARI BILAN ALOQAGA KIRISHMAYDIGAN BIRLIKLER*

- 1. Bog'lovchilar;*
- 2. Yuklamalar;*
- 3. Ko'makchilar;*
- 4. Modal so'zlar (kirish so'zlar);*
- 5. Undov so'zlar;*

*ATASH MA'NOSIGA EGA BO'LMAGAN BIRLIKLER*

- 1. Bog'lovchilar;*
- 2. Yuklamalar;*
- 3. Ko'makchilar;*
- 4. Ko'makchi fe'llar;*
- 5. To'liqsiz fe'llar;*